

Toshkent davlat agrar universiteti rektorining
2022 yil 03 ~~qo'shiq~~^{gash} dagi
1-9-6/31-son buyrug'iga
19-ilova

**Toshkent davlat agrar universitetining
“Komplaens nazorat va korrupsiyaga qarshi
kurashish” bo‘limi to‘g‘risida
NIZOM**

I. Umumiy koidalar

1. Mazkur Nizom O‘zbekistan Respublikasi Prezidentining **2021 yil 6 iyul** dagi **PQ-5177-son** “Korruptsiyaga qarshi kurashish faoliyatini samarali tashkil etishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qaroriga, hamda Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirining **2021 yil 22 oktyabrdagi 443-son buyrug‘iga** muvofiq Komplaens nazorat va korruptsiyaga qarshi kurashish bo‘limining (keyingi o‘rinlarda “bo‘lim” deb yuritiladi) maqsadi, vazifalari, funksiyalari, huquq va majburiyatlari hamda bo‘lim faoliyatini tashkil etish tartibini, xodimlarning funksional vazifalari hamda javobgarligini belgilaydi.

2. Bo‘lim Toshkent davlat agrar universitetining (TDAU) tarkibiy bo‘linmasi hisoblanadi.

3. Bo‘limning faoliyati TDAUda komplaens nazorat tizimini joriy etish va korruptsiyaga qarshi kurashishni olib borishga yo‘naltirilgan bo‘lib, o‘z faoliyatida universitet rektoriga bo‘ysunadi xamda Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligiga (keyingi o‘rinlarda “vazirlik” deb yuritiladi) hisob beradi.

4. Bo‘lim o‘z faoliyatida O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga va qonunlariga, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining qarorlariga, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlariga, Vazirlar Mahkamasining qarorlari va farmoyishdariga hamda boshqa normativ-huquqiy hujjatlarga, mazkur Nizomga, rektor buyruqlariga va Kengash qarorlariga, shuningdek boshqa qonun hujjatlariga amal qiladi.

5. Bo‘lim korruptsiya holatlarini barvaqt aniqlash va oldini olish, ularning sabab va shart-sharoitlarini bartaraf etish, manfaatlar to‘qnashuviga yo‘l qo‘ymaslik hamda korruptsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish choralarini ko‘rishg‘ mas’ul hisoblanadi.

6. Bo‘lim o‘z faoliyatini TDAUning filiallari, bo‘limlari, fakultet, kafedra xamda universitet qoshidagi akademik litsey bilan o‘zaro hamkorlikda amalga oshiradi.

II. Bo‘lim faoliyatining tashkiliy masalalari

7. Bo‘lim o‘z faoliyatida bevosita **TDAU rektoriga bo‘ysunadi**.
8. Bo‘lim boshlig‘i universitet tomonidan O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi bilan birgalikda o‘tkaziladigan ochiq tanlov asosida ishga qab

qilinadi.

9. Bo‘lim boshlig‘ini lavozimidan ozod etish masalasi Vazirlik bilan kelishiladi. Bunda universitet tomonidan Vazirlikka rektorning bo‘lim boshlig‘ini lavozimidan ozod etish haqidagi taqdimnomasi beriladi.

Ushbu taqdimnomada xodimni lavozimidan ozod etish sabablari, motivlari ko‘rsatiladi. Taqdimnomaga xodimni lavozimidan ozod etish sabablari va motivlarini tasdiqlovchi hujjatlar (masalan xodimning arizasi, ichki mexnat tartibi qoidalarini buzganligini ko‘rsatuvchi ma’lumotlar va boshqa shu kabi hujjatlar) ilova qilinadi.

10. Vazirlik tomonidan bo‘lim boshlig‘ini lavozimidan ozod etish sabablari, motivlari yetarli emas deb hisoblansa, shu jumladan bo‘lim boshlig‘i ta’qib qilinayotganligi haqida ma’lumotlarga ega bo‘lsa, ushbu masalada bo‘lim boshlig‘i bilan suxbat o‘tkazilishi mumkin.

11. Quyidagilar bo‘lim boshlig‘ini lavozimidan ozod etishni kelishishni rad etish uchun asos bo‘ladi:

Bo‘lim boshlig‘ini lavozimidan ozod etish uchun sabablar yetarli emas deb topilganda;

Bo‘lim boshligi zimmasiga yuklatilgan vazifa va majburiyatlar doirasidan tashkari vazifalarni bajarmaganligi yoki o‘ziga yuklatilgan vazifa va majburiyatlarni bajarganligi uchun ta’kib qilinganligi xolati aniklanganda.

12. Takdim etilgan xujjatlar Vazirlik tomonidan uch ish kuni ichida ko‘rib chiqilib, universitetga bo‘lim boshlig‘i lavozimidan ozod etishni kelishish yoki kelishishning rad etilganligi sabablari ko‘rsatilgan xat taqdim etiladi.

III. Bo‘limning asosiy maqsadi, vazifalari va funksiyalari

13. Bo‘limning asosiy maqsadi TDAUning filiallari, bo‘limlari, fakultet, kafedra xamda universitet qoshidagi akademik litsey korrupsiyaga qarshi kurash bo‘yicha ISO37001:2016 xalqaro standart talablariga javob beruvchi komplaens tizimni, xususan, korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini joriy etish va rivojlantirish, korrupsiyaviy holatlarni barvaqt aniqlash va ularning sabab va shart-sharoitlarini bartaraf etish, korrupsiyaviy xatti-harakatlar sodir etilishining oldini olish, universitet xodimlari orasida korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish maqsadida ularning huquqiy ongi va madaniyatini oshirish, TDAUda korrupsiyaga qarshi profilaktik chora-tadbirlarni tashkil etish, korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi hujjatlar ijrosini ta’minlashdan iborat.

14. Quyidagilar Bo‘limning asosiy vazifalari xisoblanadi:

TDAUning korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha faoliyatini takomillashtirish;

TDAUda korrupsiyaga oid huquqbarliklarni profilaktika qilish va ularga qarshi kurashish;

TDAUda korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini samarali ishlashini ta’minlash va nazorat qilish;

TDAUda “Korrupsiyasiz soxa” loyixasini amalga oshirishga qaratilgan chora-tadbirlar ijrosini ta’minlash;

TDAUda komplaens nazorat tizimini joriy etish va korrupsiyaga qarshi

kurashishga oid ishlarning xolatini o‘rganish;

TDAUda korrupsiyaga oid xavf-xatarlar yuqori bo‘lgan yo‘nalishlar hamda korrupsiyaga oid huquqbazarliklar sodir etilishining sabab va shart-sharoitlarini aniqlash;

TDAUda korrupsiya ko‘rinishlari namoyon bo‘lishiga olib keladigan tizimli muammolar va ularni bartaraf etish bo‘yicha tegishli takliflarni kiritgan holda axborot berib borish;

TDAUda korrupsiyaga oid xuquqbazarliklarning sabab va shart-sharoitlarini bartaraf etish hamda korrupsiyaga qarshi kurashish choralarining samaradorligini oshirishga qaratilgan davlat va boshqa dasturlar ijrosini ta’minlash;

TDAUda korrupsiyaga qarshi kurashishga yo‘naltirilgan jamoatchilik nazoratini muvofiqlashtirib borish, shuningdek zamonaviy usullar va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari asosida korrupsiyaga qarshi monitoring olib borish;

korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha faoliyatni amalga oshiruvchi hamda unda ishtirok etuvchi boshqa davlat organlari va tashkilotlari bilan hamkorlikni olib borish;

TDAUda korrupsiyaning holati, tendensiyalari va sabablari hamda korrupsiyaga qarshi choralar ko‘rishning samaradorligi yuzasidan sotsiologik so‘rovnomalarni tashkil etish va natijalari yuzasidan takliflar ishlab chiqish.

15. Bo‘lim o‘ziga yuklangan vazifalarni bajarish uchun quyidagi funksiyalarni amalga oshiradi:

a) TDAUning korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha faoliyatini takomillashtirish soxasida:

TDAU tizimida korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha chora-tadbirlarni amalga oshirishga qaratilgan ichki idoraviy hujjatlar loyixalarini ishlab chiqadi;

TDAU professional ta’lim tizimida korrupsiyaga qarshi kurashishga oid qonunlar va qonun osti hujjatlar, shuningdek, Ilmiy Kengash qarorlari va buyruqlariga rioya etilishi ustidan nazorat olib boradi;

TDAUning korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha chora-tadbirlarini ishlab chiqadi va tasdiqlash uchun rektorga kiritadi, ularning to‘liq, sifatli va o‘z vaqtida ijro etilishini ta’minlaydi, belgilangan chora-tadbirlarning amalga oshirilishi ahvolini o‘rganadi, natijalari bo‘yicha ma’lumotlar tayyorlaydi;

TDAU faoliyatiga oid normativ-huquqiy xujjatlar va ichki idoraviy xujjatlarda aniqlangan korrupsiyaviy normalarni bartaraf qilish bo‘yicha takliflarni ishlab chiqadi;

TDAU tomonidan ishlab chiqiladigan korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha chora-tadbirlar loyixalarini universitetda korrupsiyaga qarshi kurashish siyosatiga mosligi, maqbulligi va dolzarbligi nuqtai-nazaridan baholaydi va xulosalar beradi;

TDAU professional ta’lim tizimida “Korrupsiyasiz soxa” loyixasini amalga oshiradi;

TDAUda korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha sohaga oid ilg‘or horijiy

tajribalarni o‘rganadi va tahlil qiladi;

Professor-o‘qituvchilar va ilmiy xodimlarga korrupsiya faktlari to‘g‘risida xabardor qilish imkonini beruvchi mobil va boshqa ilovalarni ishlab chiqishda ishtirok etadi;

TDAUda korrupsiya faktlari haqida anonim xabarlarni o‘rganadi va tahlil qiladi;

TDAUda korrupsiyaga oid huquqbazarliklarni barvakt aniqlash va o‘z vaqtida bartaraf etish maqsadida huquqni muhofaza qiluvchi va nazorat qiluvchi organlar, ota-onalar bilan korrupsiyaga qarshi kurashish soxasida samarali hamkorlikni yo‘lga qo‘yadi;

TDAUda korrupsiyaga qarshi kurashish faoliyatini yanada samarali tashkil etish va takomillashtirishga qaratilgan aniq takliflarni rektorga xamda Vazirlikka kiritib boradi.

b) universitetda korrupsiyaga oid huquqbazarliklarni profilaktika qilish va ularga qarshi kurashish soxasida:

TDAUda korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baxolaydi, ularning natijalari bo‘yicha aniqlangan xavf-xatarlarni kamaytirish yuzasidan chora-tadbirlar rejalarini ishlab chiqadi va universitetda korrupsiyaviy xavf-xatari yuqori bo‘lgan lavozimlar ro‘yxatini yaratadi;

TDAU xodimlari tomonidan o‘xhash korrupsiyaviy huquqbazarliklar sodir etilishi ehtimolini baxolash maqsadida uning holati va yo‘nalishlari haqida ma’lumot to‘playdi;

axborot aloqa kanallari telegramm “bot” va “ishonch telefon”lari orqali universitet xodimlari tomonidan korrupsiyaviy xavf-xatarlar va huquqbazarliklar haqida kelib tushadigan murojaatlarni tahlil qiladi va ularni belgilangan tartibda ko‘rib chiqilishini ta’minlaydi;

TDAUda yuritiladigan xizmat tekshiruvlari reestri yoki o‘tkazilgan xizmat tekshiruvlarini ro‘yxatga oladigan boshqa tegishli hujjatda korrupsiya faktlariga doir xizmat tekshiruvlari bo‘yicha ma’lumotlarning to‘g‘ri va to‘liq aks ettirib borilishini nazorat qiladi;

davlat xaridlarini amalga oshirishda manfaatlar to‘qnashuvini tahlil qilishda va kontragentlarning ishonchlilikini tekshirishda, universitet bilan shartnomaviy munosabatlarga kirishgan xar qanday yuridik va jismoniy shaxslarning ishonchlilikini tekshirish jarayonida ishtirok etadi;

TDAU xodimlariga korrupsiyaga qarshi kurashish masalalari bo‘yicha tushuntirish va tavsiyalar beradi;

korrupsiya faktlari haqida xabar berishga mo‘ljallangan axborot aloqa kanallarining faoliyat natijalarini tahlil qiladi va tahliliy materiallarni rektorga ma’lumotnoma sifatida taqdim etadi;

TDAU faoliyatidagi korrupsiyaviy xolatlarni va xavf-xatarlarni aniqlash maqsadida talaba va xodimlar o‘rtasida so‘rovlar o‘tkazadi;

korrupsiyaga qarshi kurashishga oid talab va normalarning buzilishi masalalari bo‘yicha intizomiy javobgarlikka tortilayotgan shaxslarga jazo choralarining mutanosibligi va yetarliliginiz nazorat qiladi;

korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish maqsadida

madaniyatini yuksaltirishga, jamiyatda korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirishga doir chora-tadbirlarning ishlab chiqilishida ishtirok etish;

TDAUning korrupsiyaga qarshi kurashish chora-tadbirlarini takomillashtirish yuzasidan mutaxassislarni jalb etish bo'yicha takliflar ishlab chiqadi;

korrupsiyaviy xatti-xarakatlarni barataraf qilish yoki korrupsiyaviy jinoyatlarni tergov kilish bo'yicha tadbirlarni amalga oshirishda huquqni muhofaza qiluvchi organlar bilan hamkorlik qiladi.

Bo'lim qonunchilik hujjalari muvofiq boshqa funksiyalarni ham amalga oshiradi.

16. Bo'limga va uning xodimlariga ushbu Nizom va boshka qonunchilik hujjalarda nazarda tutilmagan funksiyalarni yuklatilishiga yo'l qo'yilmaydi.

IV. Bo'limning huquq va majburiyatları

17. Bo'lim o'ziga yuklangan vazifalar va funksiyalarni bajarish uchun quyidagi huquqlarga ega:

TDAUning bo'limlari, hududiy filiallari xamda uning qoshidagi akademik litseylardan o'ziga yuklangan vazifalar va funksiyalarni bajarish uchun vakolati doirasida tahliliy materiallarni, xulosalarni, statistik va boshqa ma'lumotlarni belgilangan tartibda so'rash va olish, xizmat majburiyatlarini bajarish doirasida TDAU xodimlaridan zarur yordam so'rash va olish, zarur xollarda ishchi guruqlar tashkil etish;

TDAU Ilmiy kengashining majlislari yig'ilishlarida ishtirok etish;

TDAU xodimlari faoliyatida aniqlangan korrupsiyaviy huquqbazarliklar yuzasidan xizmat tekshiruvlarini o'tkazish;

TDAU rektoriga korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini takomillashtirish bo'yicha takliflar kiritish;

o'z faoliyati doirasida TDAUga yozma ko'rsatmalar, topshiriq xatlari va tavsiyalar berish;

TDAUning korrupsiyaga oid majlislarida ishtirok etish;

tekshiruv o'tkazish, hujjalarni talab qilish, xodimlardan yozma tushuntirishlar olish.

Bo'lim qonunchilik hujjalari muvofiq boshka huquqlarga ham ega bo'lishi mumkin.

18. Bo'lim o'z zimmasiga yuklatilgan vazifalar va funksiyalarni bajarish uchun quyidagi majburiyatlarga ega:

qonunchilik xujjalari talablariga qatiy rioya kilish va o'z vakolat doirasidan chetga chiqmaslik;

TDAUda jinoyat alomatlari, hususan korrupsiya holatlari aniqlanganligi to'g'risida zudlik bilan to'g'ridan-to'g'ri rektorga, Vazirlik va boshqa huquqni muhofaza qiluvchi organlarga xabar berish;

TDAUning korrupsiyaga qarshi kurashish siyosati, odob-axloq qoidalarining korrupsiyaga oid qismining buzilganligi fakti yuzasidan **TDAU rektoriga ma'lumotnomalar kiritish;**

har chorakda, keyingi chorak birinchi oyining birinchi 10 kunligida

korrupsiyaga qarshi kurashish borasida amalga oshirilgan ishlar va chora-tadbirlar to‘g‘risidagi choraklik hisobotni Vazirlikka taqdim etish;

Bo‘lim qonunchilik hujjatlariga muvofiq boshqa majburiyatlarga ham ega bo‘lishi mumkin.

19. Bo‘lim xodimlari korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida faoliyat yurituvchi xodimlarga mo‘ljallangan o‘quv kurslari yoki maxsus seminar- treninglarda ishtirok etadi. O‘quv kurslari yoki maxsus seminar-treninglar vazirlik yoxud Agentlik tomonidan tashkil etilishi mumkin.

20. Bo‘lim faoliyatining natijadorligi vazirlikda korrupsiyaga qarshi kurashish tizimining samaradorlik va maqsadli ko‘rsatkichlariga erishish natijalariga asosan baxolanadi.

Bo‘lim faoliyatining maqsadli ko‘rsatkichlari rektor tomonidan tasdiqlanadi.

Bo‘lim faoliyati samaradorligining maqsadli ko‘rsatkichlariga erishish ustidan nazorat Vazirlik tomonidan amalga oshiriladi.

V. Bo‘lim tuzilmasi

21. Bo‘lim tuzilmasi Bo‘lim boshlig‘i va bosh mutaxassisni o‘z ichiga oladi.

22. Bo‘lim ishlariga boshliq raxbarlik qiladi. Shuningdek, Bo‘lim boshlig‘i faoliyatini Vazirlikning Komplaens nazorat va korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘limi bilan birgalikda tashkil qiladi.

23. Bo‘lim boshlig‘i Vazirlik bilan kelishgan holda TDAU rektorining buyrug‘i bilan belgilangan tartibda lavozimga tayinlanadi hamda lavozimidan ozod etiladi.

VI. Bo‘lim boshlig‘i va bosh mutaxassisining asosiy funksional vazifalari

24. **Bo‘lim boshlig‘ining asosiy funksional vazifalari quyidagilardan iborat:**

Bo‘limga umumiy raxbarlik kiladi, Bo‘lim ishini tashkil etadi, Bo‘limga yuklangan vazifalar va funksiyalarining bajarilishi hamda ijro intizomi bo‘yicha to‘liq javob beradi;

TDAU da korrupsiyaga qarshi kurashishga oid qonunlar, qonun osti hujjatlariga rioya etilishi ustidan nazorat olib boradi;

korrupsiyaga oid huquqbazarliklarning oldini olishga qaratilgan chora-tadbirlar va ish rejalarini ishlab chiqadi, ularning to‘liq, sifatli va o‘z vaqtida ijro etilishini ta’minlaydi;

TDAU da “Korrupsiyasiz soxa” loyixasini amalga oshirishga qaratilgan ishlarni tashkil etadi;

professor-o‘qituvchilar, talaba-yoshlar o‘rtasida korrupsiyaga qarshi kurashishga qaratilgan turli tadbirlar tashkil etadi;

ilg‘or xorijiy tajribalarni o‘rganish asosida korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha taxliliy materiallar tayyorlaydi;

huquqni muhofaza qiluvchi va nazorat qiluvchi organlar, ota-onalar bilan korrupsiyaga qarshi kurashish soxasida samarali hamkorlikni yo‘lga qo‘yadi;

komplaens nazorat va korrupsiyaga qarshi kurashishga mas‘ul shaxslarni o‘qitish va malakasini oshirishni tashkil etadi;

TDAUda korrupsiyaga yo'l qo'ymaslik yuzasidan amalga oshirilgan ishlar monitoringini yuritadi, tahliliy materiallarni rahbariyatga kiritadi;

Bo'lim faoliyatiga taalluqli masalalar bo'yicha hujjatlarni ishlab chikadi, shuningdek, kiritilgan hujjatlar loyixalari ko'rib chiqilishini ta'minlaydi va takliflar tayyorlaydi;

TDAU Ilmiy kengashining majlislarida ishtirok etadi;

Bo'lim ishlarini yanada takomillashtirishga oid chora-tadbirlarni ishlab chiqadi va amalga oshirilishini ta'minlaydi;

Bo'lim faoliyati bilan bog'lik jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlarini ko'rib chiqadi hamda ijro intizomiga to'liq amal qiladi;

qonun xujjalari muvofiq vakolati doirasida boshqa funksional vazifalarni amalga oshiradi.

25. Bosh mutaxassisning asosiy funksional vazifalari quyidagilardan iborat:

TDAU pedagog xodimlari, talaba yoshlar, hamda jismoniy va yuridik shaxslar bilan uchrashuvlar tashkil etib, ularni qiynayotgan tizimli muammolarni o'rGANADI. TDAUda korrupsiyaga oid xavf-xatarlar yuqori bo'lgan yo'nalishlar, hamda korrupsiyaga oid huquqbazarliklar sodir etilishining sabab va shart-sharoitlarini aniqlaydi;

korrupsiyaga qarshi kurashish borasida o'tkaziladigan o'rGANISHLAR, tekshirishlar, tahlillar hamda ishlab chiqiladigan takliflarda mutaxassislarni jalb etishda ishtirok etadi;

korrupsiyaga qarshi o'quv-uslubiy va metodik jihatdan, jumladan audio-video roliklar, foto hamda buklet va broshyura kabi materiallarni yaratishni yo'lga qo'yadi;

TDAUda korrupsiyaning holati, tendensiyalari va sabablari hamda korrupsiyaga qarshi choralar ko'rishniig samaradorligi yuzasidan sotsiologik, ilmiy va boshqa so'rovlarni tashkil etadi;

Bo'lim boshlig'i bo'lmaganda, bosh mutaxassis faoliyatni muvofiqlashtirib boradi;

qonunchilik hujjalari muvofiq vakolati doirasida boshqa funksional vazifalarni amalga oshiradi.

VII. Yakuniy qoida

26. Bo'lim faoliyatini qayta tashkil etish va tugatish qonun hujjalari belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

Toshkent davlat agrar universiteti

«Komplaens nazorat va korrupsiyaga qarshi kurashish»

bo'limi boshlig'i

Azizzxo'jaev T.A.

2022 yil. "02"

